

UO‘K(UDC, YDK): 81’373.46

XITOIY VA O‘ZBEK TILLARIDA EKOTURIZM TERMINLARINING SEMANTIK TASNIFI²³

Sobirova Madinaxon Raxim qizi
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: madinakhon.sobirova@icloud.com
ORCID ID: 0009-0008-0123-7495

ANNOTATSIYA	KALIT SO‘ZLAR
Mazkur maqola xitoy va o‘zbek tillaridagi ekoturizm terminlarining semantik tasnifi hamda ularning chog‘ishtirma xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning maqsadi ikki tildagi ekoturizm terminlarini semantik guruhlariga ajratish, ularning semantik xususiyatlarini aniqlash hamda terminologik tizimlar o‘rtasidagi umumiy va differensial jihatlarni chog‘ishtirma tahlil asosida yoritishdan iborat. Tadqiqot materiali sifatida ekoturizm sohasiga oid 174 ta bazaviy termin korpusi tanlandi. Tadqiqot davomida chog‘ishtirma metod, semantik tasnif, komponent tahlil, tavsifiy hamda statistik metodlardan foydalanildi. Tahlil natijasida ekoturizm terminlari tabiiy resurslar va tabiiy obyektlar, ekologik barqarorlik, ijtimoiy-madaniy resurslar hamda ekologik tizim va muhofaza bilan bog‘liq asosiy semantik guruhlariga ajratildi. Tahlil natijalari har ikki tilda ekoturizm terminlarining umumiy konseptual maydoni mavjudligini, biroq terminlarning semantik guruhlanishi, tarkibi va qo‘llanishida tafovutlar borligini ko‘rsatdi. Xitoy tilida terminologik birliklarning semantik differensiallashuvi va tarkibli modellar faolroq kuzatilsa, o‘zbek tilida milliy va o‘zlashgan birliklarning uyg‘unlashuvi ustunlik qiladi. Olingan natijalar ekoturizm terminologiyasini tizimlashtirish va keyingi chog‘ishtirma terminologik tadqiqotlar uchun material sifatida xizmat qiladi.	Ekoturizm terminlari, semantik tasnif, chog‘ishtirma tilshunoslik, xitoy tili, o‘zbek tili, terminologiya, semantik guruhlar, ekoturizm. Received: June 05, 2026 Accepted: June 12, 2026 Available online: September 5, 2026

²³ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Sobirova M. Xitoy va o‘zbek tillarida ekoturizm terminlarining semantik tasnifi. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2026. — Vol.3, № 4(12) — B. 368-379.

SEMANTIC CLASSIFICATION OF ECOTOURISM TERMS IN CHINESE AND UZBEK LANGUAGES

Sobirova Madinakhon Rakhim qizi

Tashkent State University of Oriental Studies

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: madinakhon.sobirova@icloud.com

ORCID ID: 0009-0008-0123-7495

ABSTRACT	KEYWORDS
This article is devoted to the study of the semantic classification of ecotourism terms in Chinese and Uzbek languages and their comparative features. The purpose of the study is to classify ecotourism terms in both languages into semantic groups, identify their semantic characteristics, and reveal the common and differential features of the terminological systems through comparative analysis. A corpus of 174 basic terms related to ecotourism was selected as the research material. Comparative, semantic classification, component analysis, descriptive, and statistical methods were applied in the study. The analysis showed that ecotourism terms can be classified into several major semantic groups, including natural resources and natural objects, ecological sustainability, socio-cultural resources, and terms related to ecological systems and environmental protection. The findings indicate that although ecotourism terminology in both languages shares a common conceptual field, differences exist in semantic grouping, terminological composition, and usage patterns. Chinese terminology demonstrates a higher degree of semantic differentiation and more active use of complex terminological models, whereas Uzbek terminology reflects a combination of national and borrowed lexical units. The results contribute to the systematization of ecotourism terminology and provide material for further comparative terminological studies.	Ecotourism terms, semantic classification, comparative linguistics, Chinese language, Uzbek language, terminology, semantic groups, ecotourism.

СЕМАНТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ ТЕРМИНОВ СФЕРЫ ЭКОТУРИЗМА В КИТАЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Собирова Мадинахон Рахим кизи

Ташкентский государственный университет востоковедения

Ташкент, Узбекистан

E-mail: madinakhon.sobirova@icloud.com

ORCID ID: 0009-0008-0123-7495

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
Данная статья посвящена изучению семантической классификации экотуристических терминов в китайском и узбекском языках, а также сопоставительному анализу их смысловых особенностей. Цель исследования заключается в распределении экотуристических терминов двух языков по семантическим группам, анализе их семантических особенностей и выявлении общих и дифференциальных аспектов терминологических систем на основе сопоставительного анализа. Исследование осуществлено на материале корпуса, включающего в себя 174 базовых термина, относящихся к сфере экотуризма. В ходе исследования использовались сопоставительный метод, семантическая классификация, компонентный анализ, описательный и статистический методы. В результате анализа экотуристические термины были распределены по основным семантическим группам: природные ресурсы и природные объекты, природопользование, социокультурные ресурсы, а также термины, связанные с экологическими системами и охраной окружающей среды. Результаты исследования показали, что в обоих языках существует общая концептуальная база экотуристической терминологии, однако между ними наблюдаются различия в семантической группировке, составе и употреблении терминов. В китайском языке отмечается более высокая степень семантической дифференциации и активное использование сложных терминологических моделей, тогда как в узбекском языке преобладает сочетание исконных и заимствованных лексических единиц. Полученные результаты могут быть использованы для систематизации экотуристической терминологии и проведения дальнейших сопоставительных терминологических исследований.	Экотуристические термины, семантическая классификация, сопоставительное языкознание, китайский язык, узбекский язык, терминология, семантические группы, экотуризм.

KIRISH

So‘nggi yillarda ekologik muammolarning global miqyosda kuchayishi hamda barqaror rivojlanish tamoyillarining turizm sohasiga faol integratsiyalashuvi natijasida ekoturizm sohasi jadal rivojlanmoqda (Weber, A. S., 2024, 465-471). Ushbu jarayon ekoturizm bilan bog‘liq terminologik tizimning kengayishiga, yangi terminologik birliklarning shakllanishiga va mavjud terminlarning semantik jihatdan murakkablashishiga olib kelmoqda. Shu sababli ekoturizm terminologiyasining lingvistik jihatdan o‘rganilishi, xususan, terminlarning semantik xususiyatlarini aniqlash va tizimlashtirish dolzarb masalalardan biri sifatida qaralmoqda (Mowforth M., Munt I., 2003, 144).

Xitoy va o‘zbek tillaridagi ekoturizm terminologiyasi turli tarixiy, ijtimoiy hamda lingvistik omillar ta’sirida shakllangan bo‘lib, terminologik birliklarning tarkibi, shakllanish modellari va semantik guruhlanishida ayrim tafovutlar kuzatiladi. Shu bilan birga, ikki til materiallari asosida ekoturizm terminlarini semantik jihatdan chog‘ishtirib o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlar soni cheklangan. Ayniqsa, terminlarning semantik klassifikatsiyasi va guruhlanish tamoyillarini qiyosiy o‘rganish yetarlicha yoritilmagan.

Tadqiqotning dolzarbligi xitoy va o‘zbek tillaridagi ekoturizm terminlarini semantik jihatdan tizimlashtirish, ularning konseptual guruhlarini aniqlash hamda terminologik tizimlarning o‘xshash va differensial jihatlarini ochib berish zarurati bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi xitoy va o‘zbek tillaridagi ekoturizm terminlarining semantik klassifikatsiyasini chog‘ishtirma aspektda tahlil qilish, terminologik birliklarning asosiy semantik guruhlarini aniqlash hamda ikki til terminologik tizimidagi semantik tafovutlarni tavsiflash bilan belgilanadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi xitoy va o‘zbek tillaridagi ekoturizm terminlarining semantik klassifikatsiyasini amalga oshirish hamda terminologik tizimlarning umumiy va differensial xususiyatlarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqib quyidagi vazifalar belgilandi:

- xitoy va o‘zbek tillaridagi ekoturizm terminlarini semantik jihatdan tasniflash;
- terminologik birliklarning asosiy semantik guruhlarini aniqlash;
- semantik guruhlarining tarkibiy xususiyatlarini tavsiflash;
- ikki til terminologik tizimining o‘xshash va farqli jihatlarini chog‘ishtirma aspektda tahlil qilish.

ASOSIY QISM

Ekoturizm terminologiyasi ekologiya, turizm va atrof-muhit muhofazasi bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi murakkab terminologik tizim hisoblanadi (Buckley R., Ollenburg C., 2011, 307-309). Mazkur tizimdagi terminlarning semantik jihatdan guruhlanishi ularning mazmuniy tarkibi, funksional vazifasi hamda konseptual maydonlarini aniqlash imkonini beradi. Shu sababli tadqiqot davomida ekoturizm terminlari semantik klassifikatsiya tamoyili asosida o‘rganildi.

Tadqiqot materiali sifatida xitoy va o‘zbek tillaridagi ekoturizm sohasiga oid 174 ta bazaviy termin korpusi shakllantirildi. Terminlarni tanlashda ularning ekoturizm diskursida qo‘llanish chastotasi, semantik mustaqilligi, terminologik relevanti hamda ikki til terminologik tizimida uchrash darajasi asosiy mezon sifatida olindi. Tadqiqot korpusiga kiritilgan birliklar semantik yaqinligi va konseptual maydoniga ko‘ra guruhlariga ajratildi.

Tahlil jarayonida chog‘ishtirma metod, semantik klassifikatsiya, komponent tahlil hamda tavsifiy metodlardan foydalanildi. Chog‘ishtirma metod orqali xitoy va o‘zbek tillaridagi terminlarning umumiy va differensial xususiyatlari aniqlandi, komponent tahlil yordamida esa terminlarning ichki semantik tuzilishi tavsiflandi. Semantik klassifikatsiya terminologik birliklarni ma’no yaqinligiga ko‘ra tizimlashtirish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida terminlar quyidagi asosiy semantik guruhlariga ajratildi:

- tabiiy resurslar va tabiiy obyektlarni ifodalovchi terminlar;
- ekologik barqarorlik bilan bog‘liq terminlar;
- turizm faoliyatiga oid terminlar;
- ijtimoiy-madaniy mavzudagi terminlar;
- ekologik tizim va muhofaza terminlari.

Mazkur guruhlash terminologik tizimning ichki tuzilishini aniqlash hamda xitoy va o'zbek tillaridagi ekoturizm terminlarining semantik xususiyatlarini chog'ishtirma aspektda tavsiflash uchun metodologik asos sifatida xizmat qildi. Keyingi bo'limlarda har bir semantik guruh tarkibidagi terminlar alohida tahlil qilinadi.

Ekoturizm terminologik tizimida tabiiy resurslar va tabiiy obyektlarni ifodalovchi birliklar asosiy semantik qatlamlardan birini tashkil qiladi. Ushbu guruhga tabiiy landshaftlar, biologik resurslar, muhofaza qilinadigan hududlar va ekologik obyektlarni ifodalovchi terminlar kiradi (Khodjayev A., 2020,14). Tahlil natijalari mazkur semantik guruh ikki tilda ham ekoturizm terminologiyasining faol qatlamlaridan biri ekanligini ko'rsatdi.

Xitoy tilida ushbu guruhga mansub terminlar asosan murakkab strukturali birliklar orqali ifodalanadi. Jumladan, 生态资源 (shēngtài zīyuán — ekologik resurslar), 自然保护区 (zìrán bǎohùqū — qo'riqlanadigan tabiiy hudud), 国家公园 (guójiā gōngyuán — milliy park), 自然景观 (zìrán jǐngguān — tabiiy landshaft), 湿地生态系统 (shīdì shēngtài xìtǒng — botqoqlik ekotizimi) kabi terminlar tabiat obyektlari va ekologik resurslarni nominatsiya qilish vazifasini bajaradi (Zhang H., 2017, 287).

O'zbek tilidagi mos terminologik birliklar ekologik resurslar, qo'riqxonalar, milliy bog', tabiiy landshaft, botqoqlik ekotizimi, biologik xilma-xillik kabi terminlardan tashkil topgan. Ushbu terminlarning ayrimlari milliy terminologik model asosida shakllangan bo'lsa, ayrimlari xalqaro ekologik terminologiya ta'sirida til tizimiga kirib kelgan (Nig'matov A., N. Shomurotova., 2007, 108-123).

Chog'ishtirma tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, xitoy tilidagi tabiiy obyektlarni ifodalovchi terminlar ko'proq tarkibli va iyerarxik model asosida quriladi. Masalan, 自然保护区 (zìrán bǎohùqū) terminida obyektning tabiiyligi va muhofaza funksiyasi termin tarkibining o'zida ifodalangan. O'zbek tilida esa ko'plab terminlar qisqaroq nominativ birliklar shaklida qo'llanadi.

Bundan tashqari, xitoy tilida ekologik obyektlarni differensial nomlash darajasi yuqoriroq kuzatiladi. Masalan, 湿地生态系统 (shīdì shēngtài xìtǒng) va 森林生态系统 (sēnlín shēngtài xìtǒng — oʻrmon ekotizimi) kabi terminlar ekotizimlarni aniq kategoriyalarga ajratadi (Chen L., 2020, 196). Oʻzbek tilida esa bunday terminlar koʻpincha umumlashtirilgan birliklar orqali ifodalanadi.

Ekologik barqarorlikni ifodalovchi terminlar ekoturizm terminologik tizimining muhim semantik qatlamlaridan biri hisoblanadi (Ceballos-Lascurain H., 1993, 336). Ushbu guruhga tabiat resurslaridan oqilona foydalanish, ekologik muhofaza, barqaror rivojlanish hamda ekologik xavfsizlik bilan bogʻliq terminologik birliklar kiradi. Mazkur semantik guruh terminlari ekoturizmning konseptual asoslarini aks ettirishi bilan xarakterlanadi.

Xitoy tilida ekologik barqarorlik bilan bogʻliq terminlar koʻproq ekologik boshqaruv, resurslarni muhofaza qilish va barqaror taraqqiyot konsepsiyalarini ifodalovchi murakkab terminologik birliklar orqali ifodalanadi (Choi H. C., 2016, 916-917). Jumladan, 可持续发展 (kě chíxù fāzhǎn — barqaror rivojlanish), 环境保护 (huánjìng bǎohù — atrof-muhit muhofazasi), 生态平衡 (shēngtài pínghéng — ekologik muvozanat), 绿色发展 (lǜsè fāzhǎn — yashil rivojlanish), 资源保护 (zīyuán bǎohù — resurslarni muhofaza qilish) kabi terminlar ushbu guruhning asosiy birliklarini tashkil etadi.

Oʻzbek tilidagi mos terminologik qatlam barqaror rivojlanish, ekologik muvozanat, atrof-muhit muhofazasi, resurslarni muhofaza qilish, yashil iqtisodiyot, ekologik xavfsizlik kabi birliklarni oʻz ichiga oladi. Mazkur terminlarning katta qismi ekologik diskurs va xalqaro terminologiya taʼsirida shakllangan boʻlsa-da, ayrim birliklar milliy terminologik model asosida moslashtirilgan.

Chogʻishtirma tahlil natijalari shuni koʻrsatadiki, xitoy tilida ekologik barqarorlik terminlari koʻproq institutsional va siyosiy mazmun bilan boyitilgan. Masalan, 绿色发展 (lǜsè fāzhǎn) termini nafaqat ekologik jarayonlarni, balki iqtisodiy rivojlanish modelini ham ifodalaydi (Семе́нас А.Л., 2000, 224). Oʻzbek

tilida esa mazkur semantik maydon ko‘proq ekologik muhofaza va tabiatni asrash bilan bog‘liq birliklar orqali namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, xitoy tilida ekologik barqarorlik konseptini ifodalovchi terminlar ko‘proq differentsiallashtirilganligi kuzatiladi. Masalan, 低碳旅游 (dītàn lǔyóu — past uglerodli turizm), 绿色消费 (lǜsè xiāofèi — yashil iste’mol) kabi birliklar ekologik faoliyatning alohida yo‘nalishlarini ifodalaydi (张世禄., 1956, 178). O‘zbek tilida esa bu kabi terminlar nisbatan kamroq mustaqil terminologik birlik sifatida qo‘llanadi.

Mazkur semantik guruh tahlili ekologik barqarorlik konsepti har ikki tilda mavjud bo‘lsa-da, terminologik tizimlarning rivojlanish darajasi va semantik tarmoqlanishi turlicha ekanligini ko‘rsatadi.

Ijtimoiy-madaniy resurslarni ifodalovchi terminlar ekoturizm terminologik tizimida jamiyat, madaniyat va mahalliy hamjamiyat bilan bog‘liq tushunchalarni ifodalovchi semantik qatlamni tashkil qiladi (Sharpley R., 2009, 167). Ushbu guruhga mahalliy an‘analari, madaniy meros, etnik xususiyatlar hamda mahalliy aholining ekologik faoliyatdagi ishtiroki bilan bog‘liq terminologik birliklar kiradi.

Xitoy tilida mazkur semantik guruhga mansub terminlar ko‘proq madaniy meros va mahalliy hamjamiyat tushunchalari bilan bog‘liq holda shakllangan. Jumladan, 文化遗产 (wénhuà yíchǎn — madaniy meros), 非物质文化遗产 (fēi wùzhì wénhuà yíchǎn — nomoddiy madaniy meros), 民俗文化 (mínsú wénhuà — xalq madaniyati), 传统村落 (chuántǒng cūnlùò — an‘anaviy qishloqlar), 当地社区 (dāngdì shèqū — mahalliy hamjamiyat) kabi terminlar ushbu semantik guruh tarkibiga kiradi (张晶., 1984, 132).

O‘zbek tilidagi mos terminologik birliklar madaniy meros, nomoddiy madaniy meros, xalq an‘analari, mahalliy hamjamiyat, etnomadaniy resurslar, an‘anaviy turmush tarzi kabi birliklardan iborat. Ushbu terminlar ekologik va madaniy qadriyatlarning o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi.

Chog‘ishtirma tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xitoy tilida ijtimoiy-madaniy terminlar ko‘proq institutsional va tasniflangan shaklda qo‘llanadi.

Masalan, 非物质文化遗产 (fēi wùzhì wénhuà yíchǎn) termini aniq huquqiy va madaniy kategoriya sifatida shakllangan. O‘zbek tilida esa ayrim terminlar ko‘proq tavsifiy birliklar orqali ifodalanadi.

Mazkur semantik guruh ekoturizm terminologiyasi faqat ekologik obyektlar bilan cheklanmasligini, balki madaniy va ijtimoiy komponentlarni ham qamrab olishini ko‘rsatadi (Петров А. В., 2015, 256).

Ekologik tizim va muhofaza bilan bog‘liq terminlar ekoturizm terminologiyasining muhim semantik qatlamlaridan biri hisoblanadi (Лукичев А.Б., 2011, 154). Mazkur guruh tabiatni saqlash, biologik resurslarni muhofaza qilish, ekotizimlar barqarorligini ta‘minlash hamda ekologik boshqaruv bilan bog‘liq terminologik birliklarni qamrab oladi. Ushbu terminlar ekologik muhit va inson faoliyati o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ifodalashi bilan xarakterlanadi (Jamieson D. W., 2008, 55).

Xitoy tilida ushbu guruhga mansub terminlar ko‘pincha ekologik tizimning tarkibiy qismlari va muhofaza mexanizmlarini ifodalovchi murakkab terminologik birliklar orqali namoyon bo‘ladi. Jumladan, 生态系统 (shēngtài xìtǒng — ekotizim), 生物多样性 (shēngwù duōyàngxìng — biologik xilma-xillik), 环境监测 (huánjìng jiāncè — ekologik monitoring), 生态保护 (shēngtài bǎohù — ekologik muhofaza), 自然资源管理 (zìrán zīyuán guǎnlǐ — tabiiy resurslarni boshqarish), 生态恢复 (shēngtài huīfù — ekologik tiklanish) kabi terminlar ushbu semantik guruhning asosiy birliklarini tashkil etadi (李艳., 2003, 173).

O‘zbek tilidagi mos terminologik qatlam ekotizim, biologik xilma-xillik, ekologik monitoring, ekologik muhofaza, tabiiy resurslarni boshqarish, ekologik tiklanish kabi birliklardan iborat. Mazkur terminlarning katta qismi ekologiya fanining rivojlanishi hamda xalqaro ekologik diskurs ta‘sirida terminologik tizimga kirib kelgan (Turg‘unov R., 2017, 68).

Chog‘ishtirma tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, xitoy tilida ekologik muhofaza terminlari ko‘proq tizimlashtirilgan va boshqaruv komponentlarini ham o‘z ichiga oladi. Masalan, 自然资源管理 (zìrán zīyuán guǎnlǐ) termini nafaqat

resurslardan foydalanishni, balki ularni nazorat qilish va boshqarish jarayonlarini ham anglatadi. O'zbek tilida esa ayrim terminlar kengroq ma'noda qo'llanib, boshqaruv va muhofaza komponentlari ko'pincha alohida birliklar orqali ifodalanadi.

Bundan tashqari, xitoy terminologik tizimida ekologik jarayonlarni ifodalovchi terminlarning differensiallashuvi yuqori darajada kuzatiladi. Masalan, 生态恢复 (shēngtài huīfù — ekologik tiklanish) va 生态修复 (shēngtài xiūfù — ekologik rekultivatsiya/tiklash) terminlari yaqin ma'noli bo'lsa-da, funksional jihatdan farqlanadi. O'zbek tilida esa bunday terminologik farqlanish darajasi nisbatan pastroq kuzatiladi (Hasanova G., 2019, 54-56).

Mazkur semantik guruh ekologik tizimlarni ifodalashda har ikki til terminologik tizimi umumiy konseptual asosga ega ekanligini ko'rsatsa-da, terminlarning tarmoqlanish darajasi va semantik differensiallashuvi jihatidan farqlar mavjudligini namoyon etadi.

XULOSA

Tadqiqot davomida xitoy va o'zbek tillaridagi ekoturizm terminlarining semantik klassifikatsiyasi amalga oshirildi hamda terminologik birliklarning guruhlanish xususiyatlari chog'ishtirma aspektda tahlil qilindi. Tahlil uchun shakllantirilgan 174 termin korpusi asosida terminlar tabiiy resurslar va tabiiy obyektlar, ekologik barqarorlik, ijtimoiy-madaniy resurslar hamda ekologik tizim va muhofaza bilan bog'liq semantik guruhlariga ajratildi.

Tahlil natijalari xitoy tilidagi ekoturizm terminologik tizimida semantik differensiallashuv darajasi yuqoriroq ekanligini ko'rsatdi. Xitoy tilida murakkab terminologik modellar va tarkibli birliklar faol qo'llansa, o'zbek tilida qisqaroq nominativ birliklar va umumlashgan terminlar nisbatan ko'proq uchradi.

Chog'ishtirma tahlil ikki til terminologik tizimida umumiy konseptual maydon mavjudligini, biroq terminlarning strukturasi, semantik tarmoqlanishi va nominatsiya modellarida farqlar borligini ko'rsatdi. Ushbu natijalar ekoturizm terminologiyasini tizimlashtirish, ikki tilli terminologik lug'atlar yaratish hamda keyingi terminologik tadqiqotlar uchun material sifatida foydalanilishi mumkin.

Keyingi tadqiqotlarda ekoturizm terminlarining struktur-semantik modellari, media diskursdagi qo'llanish xususiyatlari hamda terminlarning tarjimaviy ekvivalentligi masalalarini kengroq o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Hasanova G. Turizm terminologiyasining tarjimasi: O'zbek va rus tillari misolida. – Toshkent: O'zbekiston Milliy Universiteti, 2019. – 54 – 56 b.
2. Khodjayev A. O'zbek tilida turizm terminologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 14 b.
3. Nig'matov A., N. Shomurotova. Ekoturizm asoslari –Toshkent.: Turon Iqbol, 2007. – 108–123 b.
4. Turg'unov R. Turizm va ekologiya: Ekoturizm atamalari va alarning rivojlanishi. – Samarqand: Samarqand davlat universiteti. – 2017. – 68 b.
5. Лукичев А.Б. Сущность устойчивого и экологического туризма / А.Б. Лукичев // Рос. журнал экотуризма, 2011. – 154 с.
6. Петров А. В. Формирование экологической терминологии в русском языке. – Вестник РАН, 2015. – 256 с.
7. Семенов А.Л. Лексика китайского языка. – М.: Муравей, 2000. – 224 с.
8. 张世禄. 小学词汇教学基本知识讲话. – 北京, 1956. – 178页.
9. 李艳. 中国生态旅游术语的发展: 语言学视角. – 北京: 北京语言文化大学出版社, 2003. – 177页.
10. 张晶. 词, 词组, 句词. – 北京, 1984. – 132页.

REFERENCE

1. Buckley, R., Ollenburg, C. (2011). Trends and lags in the use of ecotourism terminology in the scholarly and popular press. *Tourism Recreation Research*, 36(3), 307–309. <https://doi.org/10.1080/02508281.2011.11081677>
2. Ceballos-Lascurain H. (1993). Ecotourism as a Worldwide Phenomenon. *Ecotourism: a Guide for Planners and Managers*. North Bennington, Vt.: Ecotourism Society, 336 p.
3. Chen L. (2020). Ecotourism Terminology and its Linguistic adaptation in the Chinese context. – Beijing: Beijing University, 196 p.
4. Choi, H. C. (2016). Sustainable Tourism. In *Sustainable Tourism* (pp. 916–917). https://doi.org/10.1007/978-3-319-01384-8_193
5. Jamieson D. W. (2008). *Language and Tourism: Ecotourism and its Linguistic Implications*. Washington: Island press, 55 p.
6. Liu J. (2018). The influence of Globalization on Ecotourism terminology in the Chinese language. Hongkong: The Chinese university, 208 p.
7. Mowforth, M. Munt, I. (2003). *Tourism and Sustainability: Development and New Tourism in The Third World*. London/New York: Routledge, 144p.
8. Sharpley R. (2009). Tourism the Development of Ecotourism. In the *Encyclopedia of Tourism*. London: Routledge, 167 p.
9. Weber, A. S. (2024). Disambiguation of the terminology of sustainable tourism and ecotourism. In *Lecture notes in networks and systems* (pp. 465–471). https://doi.org/10.1007/978-3-031-74828-8_40
10. Zhang H. (2017). *Ecotourism and its Terminology: A study of the Evolution in the Chinese language*. Shanghai: Fudan University, 287 p.